

**MAVZU: OLIY TA'LIMDA ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMI VA
TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI
TAHLILI**

Qahramonov Og'abek Izzat o'g'li

Osiyo xalqaro universiteti

qahramonovogabek@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lismida zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llashning pedagogik asoslari tahlil qilingan. ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari ko'rsatilgan. masofaviy ta'lim, interaktiv metodlar va multimedia vositalarining ahamiyati yoritilgan. zamonaviy texnologiyalar talabalarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim texnologiyalari, oliy ta'lim, pedagogika, interaktiv metodlar.

**ТЕМА: АНАЛИЗ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ОСНОВ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
СОВРЕМЕННОЙ СИСТЕМЫ И ТЕХНОЛОГИЙ ОБУЧЕНИЯ В
ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ**

Қахрамонов Оғабек

Азиатский международный университет

qahramonovogabek@gmail.com

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические основы использования современных образовательных технологий в системе высшего образования. Описаны методы эффективного применения информационно-коммуникационных технологий в учебном процессе. Освещена роль дистанционного обучения, интерактивных методов и мультимедийных средств. Современные технологии способствуют развитию самостоятельного обучения студентов

Ключевые слова: современные образовательные технологии, высшее образование, педагогика, интерактивные методы.

**TOPIC: ANALYSIS OF THE PEDAGOGICAL FOUNDATIONS FOR THE
USE OF MODERN EDUCATION SYSTEMS AND TECHNOLOGIES IN
HIGHER EDUCATION**

Abstract This article analyzes the pedagogical foundations of using modern educational technologies in higher education. It outlines effective methods for integrating information and communication technologies into the learning process. The importance of distance learning, interactive methods, and multimedia tools is highlighted. Modern technologies enhance students' independent learning skills.


Key words: modern educational technologies, higher education, pedagogy, interactive methods.

Bugungi kunda dunyo ta'lim sohasida xususan oliv ta'lim mussasalari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida pedagog-mutaxassislearning salohiyatini takomillashtirish, o'quv jarayonini rivojlantirishda zamonaviy ta'lim ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish, hamkorlikda o'qitish texnologiyalarini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Fanlarni o'kitishda bugungi kunda kompetensiyaviy yondashuvdan foydalanish, interfaol metodlarni ta'limiga tatbiq qilish, talaba mantiqiy tafakkurini takomillashtirishning metodik-didaktik ta'minotini ishlab chiqish orqali zamonaviy ta'lim texnologiyalari hamda pedagogik texnologiyalar asosida o'qitishni rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda.


Hozirda zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarni yanada takomillashtirish uchun zamonaviy texnologiyalarning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning pedagogik xususiyatlarini ilmiy-tadqiqot misolida ochib berish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanish darajalarini rivojlantirishni talab etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, ta'limning sifat va samaradorligini oshirishga bo'lган qiziqishga e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida innovatsion texnologiyalarni o'quv jarayoniga joriy etishda mamlakatimiz uzluksiz ta'lim tizimida rivojlangan xorijiy mamlakatlarning o'qitish amaliyotida qo'llanilayotgan ilg'or pedagogik texnologiyalar va ta'lim innovatsiyalaridan foydalanilmoqda.


Zamonaviy mamlakatlardagi pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar talabalarni kelajak muammolariga tayyorlaydigan yanada qiziqarli, inklyuziv va samarali ta'lim muhitini yaratishga qaratilgan. Bular turli davlatlarda zamonaviy o'qitish uslublari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar qanday tatbiq etilayotganiga bir necha misoldir. Ushbu yondashuvlar orasida umumiyo mavzu talabaga yo'naltirilgan



Texnologiya - bu belgilangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishning 'qtisodiy samarali loyihalangan jarayonlar ketma-ketligi majmuidir. "Texnologiya" so'zi lotincha "Thexnos" – san'at, hunar, soha va "Logos" – san degan ma'noni anglatadi.



Pedagogik texnologiya - insonga ta'lim va tarbiya berishning ilmiy asoslangan, inson tafakkuriga, ya'ni ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining intellektual salohiyatiga bog'liq holda amalga oshiriladigan jarayonlar majmuidir.



Innovatsion pedagogik texnologiya - aynan ta'lim-tarbiya jarayonida 'alabalar (tinglovchilar)ga muayyan fan (mavzu) bo'yicha bilim berish va haxsini shakllantirishga qaratilgan o'qitishning zamonaviy uslublari va texnik ositalari majmuidir.

ta'limga o'tish, texnologiyalarni integratsiyalashuvi hamda tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijodkorlikka e'tibor qaratishdir.

Bugungi kunda yangi O'zbekistonda har bir sohani rivojlantirish jarayonida eng avvalo ta'lim sifati eng muhim rol o'ynaydi. Aynan ta'lim sohasi innovatsiyaning dastlabki qadamlaridandir. Mamlakatimizda ta'lim taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqish uchun bir qancha strategiyalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. "Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda" g'oyasi Yurt boshimiz SH. M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilishi pedagogika sohasiga ham katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, pedagogik innovatsiyalarni ta'limning yangi usullari, yondashuvlari va texnologiyalarini ishlab chiqish va mamlakatimizda zamonaviy ta'lim tizimimizda joriy etish modernizatsiyani olib kirishga sabab bo'lmoqda.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari xususan pedagogik texnologiya tushunchalari ta'lim tizimida juda ko'p qo'llanilib kelinmoqda. Xususan Oliy ta'lim muassasalarida bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik texnologiyalar tushunchalari keng qo'llanilmoqda.

1-rasm. Asosiy tushunchalar ta'rifi

Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni texnologiyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ta'limda innovatsion texnologiyalarini joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rinni olgan. Xusuan prezidentimizning «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-conli Farmonida ustuvor vazifalar belgilandi. Bu oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy ta'limni takomillashtirish bo'lajak pedagog-mutaxassislarning raqamli texnologiyadan samarali foydalana olish imkoniyatlarini oshirish, uning uslubiy ta'minotini takomillashtirishi uchun poydevor yaratdi.

Zamonaviy o'qitish texnologiyasi an'anaviy ma'ruza o'qish uslubini ko'zda tutmaydi va shu bilan bir qatorda ma'ruza darslarini amaliy darslarga qarama-qarshi qo'ymaydi. Zamonaviy o'qitishda ma'ruza va amaliyat bir butun mashg'ulotning qismlari deb qaraladi va bu o'qituvchi hamda talabaning o'zaro ta'siri hamda talabalarning mashg'ulot davomida faol ishtirok etish darajasi bilan belgilanadi. Ma'lumki, an'anaviy ma'ruza darslarida o'qituvchi faolligi ta'minlansa, amaliy mashg'ulotlarda talaba faolligi talab etiladi. Zamonaviy uslubda o'qituvchidan mashg'ulot davomida talaba va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro ta'sir darajasining bir ko'rinishidan ikkinchisiga mavzuga bog'liq holda ustamonlik bilan ravon o'tishi talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda talaba hozirgi axborotlar makonida zarur va kerakli ma'lumotlarni mustaqil oladi, u adashishi mumkin, lekin zamonaviy ta'lim unga yo'lli ko'rsatadi. Lekin, darslar eski an'anaviy usulda mavzu materiallarni "o'qib berish" bo'lib qolmasligi kerak. Zamonaviy ma'ruza avvalgi o'qitishning "nofaol" usulidan "faol" usuliga o'tmog'i, bahs, munozara, suhbat, muhokama shaklida amaliy ishlarning uyg'unligi, ya'ni zamonaviy interaktiv usullarda tashkil etilishi lozim. Shu sababli hozirgi vaqtidagi ko'plab zamonaviy uslublar o'qitishning zamonaviy ta'lim tizimini va interaktiv uslublarini qo'llash bilan bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli Farmoni
2. Abduqodirov A.A. Ta'lim va tarbiyada «Case-study» texnologiyalari. –T.: «Fan va texnologiya», 2017, -344 b.
3. Кулдашева Ш. А., Ахмаджанов И. Л., Адизова Н. З. Закрепление подвижных песков пустынных регионов сурхандары с помощью солестойких композиций //научные исследования. – 2020. – С. 101.
4. Raximov O.D. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari – o'quv qo'llanma T.: Toshkent – 2012Y - 111 b

5. Беспалко В.П. Педагогика и прогрессивное технология обучения М.: Изд-во инс.проф.обр. Мин. Образования России, 1995.-345 б.
6. Ziyomuhhammadov B., Abdullaeva Sh. Ilg‘or pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyat. “Ma’naviyat asoslari” darsi asosida ishlangan uslubiy qo’llanma. – Т.: Abu Ali ibn Sino, 2001. – 80 с
7. Kahramanov , O. Theoretical foundations of pedagogical technologies in educational processes. Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education, 1(9), 61–63.
8. Qahramonov O.I. Oliy ta’lim tizimida talabalar bilimini baholash.- “Pedagogs” international research journal 99-101 b